

AQSH SOTSIOLOGIYASIDA NEOPOZITIVIZIM G'OYALARI

Ikromova Sohiba Suyun qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti, Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.

sohibaikromova175@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15294910>

NEOPOSITIVIST IDEAS IN US SOCIOLOGY

Abstract. *This article analyzes the formation and stages of development of the neopositivist approach in US sociology. The methodological foundations of neopositivism, its influence on empirical research, and the scientific heritage of its main representatives, such as Paul Lazarsfeld and Robert K. Merton, are highlighted. The advantages and limitations of neopositivist sociology, as well as the critical approaches that have emerged against it, are also considered. The article serves as an important theoretical and practical basis for understanding the modern style of scientific sociology.*

Keywords: *neopositivism, US sociology, empirical research, Talcott Parsons, Paul Lazarsfeld, Robert K. Merton, structural functionalism, scientific methodology, statistical analysis.*

ИДЕИ НЕОПОЗИТИВИЗМА В СОЦИОЛОГИИ США

Аннотация. *В статье анализируется становление и этапы развития неопозитивистского подхода в социологии США. Будут рассмотрены методологические основы неопозитивизма, его влияние на эмпирические исследования и научное наследие его основных представителей, таких как Пол Лазарсфельд и Роберт К. Мертон. В статье также обсуждаются преимущества и ограничения неопозитивистской социологии, а также критические подходы, возникшие против нее. Статья служит важной теоретической и практической основой для понимания современного метода научной социологии.*

Ключевые слова: *неопозитивизм, социология США, эмпирические исследования, Толкотт Парсонс, Пол Лазарсфельд, Роберт К. Мертон, структурный функционализм, научная методология, статистический анализ.*

20-asrning o'rtalarida AQSh sotsiologiyasida ilmiy metodologiyaga asoslangan yondashuvlar ustuvor bo'la boshladi. Shu davrda neopozitivizm, ya'ni ijtimoiy fanlarda tabiiy fanlarga xos aniq o'lchov va tahlil usullarini qo'llash yondashuvi shakllandi. Bu metodologik burilish sotsiologiyaning empirik asosda rivojlanishiga xizmat qildi.

Sotsiologiyaning jadal rivojlanishiga va Amerika jamiyatiga oson moslashishiga asosiy sabab - bu pragmatizm va instrumentalizm mafkurasi va falsafasi edi. Shu o'rinda, neopozitivizm haqida to'xtalib o'tish zarur bo'ladi, chunki aynan uning ta'siri bu davrda AQSh sotsiologiyasida amaliy tadqiqotlarni mutlaqlashtirishga asab bo'lgan. Sotsiologiyada neopozitivizm - falsafaning mantiqiy pozitivizmga tayanuvchi nazariy-metodologik yo'nalishdir. O.Kont tomonidan taqdim etilgan pozitivizmning asosiy tamoyillar to'rtta bo'lgan bo'lsa, neopozitivistlar uni yana ikki tamoyil bilan boyitadilar. Neopozitivizmning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1) ijtimoiy voqea-hodisalar butun bir borliq uchun umumiy bo'lgan tabiiy va ijtimoiy-tarixiy qonunlarga bo'ysunadi (naturalizm);
- 2) sotsial tadqiqot usullari tabiatshunoslik fanlari usullari kabi aniq, qat'iy va ob'ektiv bo'lishi lozim (ssientizm);
- 3) inson xulq-atvorining "subyektiv jihatlarini" faqatgina ochiq xulq-atvor orqali tadqiq etilishi lozim (bixeviorizm);
- 4) barcha ilmiy tushunchalar operatsional tarzda aniqlanishi lozim (operatsionalizm);
- 5) barcha ijtimoiy voqea-hodisalar miqdoriy jihatdan qayd etilishi va o'rganilishi lozim (kvantifikatsiya);
- 6) sotsiologiya fan sifatida qadriyatli hukmlardan va mafkuradan xoli bo'lmog'i lozim (metodologik obyektivizm).

Ushbu tamoyillar asosida neopozitivizm vakillari inson xulq-atvori motivlarini faqatgina konkret xatti-harakatlarni kuzatish orqaligina tadqiq etish mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, bu xatti-harakatlarda faqatgina moddiy-texnik omillarning rolini aynanlashtiradilar. Quyidagi talablarga javob bergandagina sotsial voqea-hodisalar tadqiqoti o'zining haqqoniyligini namoyon etadi:

- a) miqdoriy jihatdan, matematik usullar asosida qayd etish mumkin bo'lganda;
- b) hissiy ma'lumotlarga asoslanganda;
- d) empirik jihatdan tekshirish mumkin bo'lganda.

Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy hayotning barcha voqeahodisalarini ham (masalan, psixik jarayonlar) miqdoriy jihatdan qayd etish va o'rganish, ijtimoiy qonuniyatlarini ratsional tafakkur tushunchalarisiz tadqiq etish, ko'pgina nazariy mushohadalarning (masalan, jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti istiqbollari haqidagi) haqqoniyligini bevosita verifikatsiya orqali tekshirish mumkin emas.

Neopozitivizm o'zlarini "ilmiy sotsiologiya" vakillari yoki sotsiologiyada "tabiiy-ilmiy" yo'nalish vakillari, deb hisoblovchi umumiy bir g'oyada birlashgan alohida bir necha maktablardan

tashkil topgan yo'nalishdir. Vena to'garagi tarkibida shakllangan bu oqim keyinchalik AQSh sotsiologiyasiga kuchli ta'sir o'tkazib, XX asr boshlaridan empirik sotsiologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Natijada, bevosita amaliy ishlarga e'tiboming kuchayishi oqibatida, sotsiologiya ijtimoiy ish bilan tenglashtirildi. Nazariy va metodologik bazaning yetishmovchiligi - ushbu davr kamchiligi sifatida empirizm va pragmatizm kabi xususiyatlarni namoyon qildi. Buning natijasida empirik tadqiqotlarni sotsiologik nazariyalarga qarshi qo'yish hisobiga, ularning sotsiologik nazariyalarni ma'lum bir muddatda (15-20 yil) butun sotsiologiya sahnasidan surib chiqarishga imkoniyat berdi.[1]¹

Asosiy vakillar va ularning hissasi

Paul Lazarsfeld. U ommaviy axborot vositalari ta'siri, ijtimoiy psixologiya va kommunikatsiya sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. Lazarsfeld empirik metodlarni sotsiologiyaga keng joriy qilgan.[2]²

Robert K. Merton. Merton "o'rta darajadagi nazariyalar" g'oyasini ilgari surgan. U empirik dalillar va nazariy yondashuvlar o'rtasidagi bog'liqlikka urg'u bergan. Uning "funktional tahlil" usuli sotsiologik nazariyani amaliy tadqiqot bilan uyg'unlashtirgan.[3]³

Talkott Parsons. Garchi Parsons to'liq neopozitivist bo'lmasa-da, uning strukturaviy funksionalizm nazariyasi jamiyatni tizimli va ilmiy asosda o'rganishga yo'naltirilganligi bilan bu yondashuvga yaqin edi.[4]⁴

Neopozitivizmning kuchli va zaif tomonlari

Kuchli tomonlari:

- Sotsiologiyani ilmiy asoslashga harakat qilgan.
- Empirik ma'lumotlarga asoslangan tahlil imkonini bergan.
- Statistik metodlarning keng qo'llanishiga sabab bo'lgan.

Zaif tomonlari:

- Ijtimoiy hodisalarning mazmuniiy va madaniy jihatlarini e'tiborsiz qoldirgan.
- Sub'ektivlik va insoniy tajribaning noaniq tomonlarini qamrab olmagan.

Neopozitivizmga tanqidiy yondashuvlar 1970-yillardan boshlab interpretativ sotsiologiya, simvolik interaksionizm va kritik nazariya neopozitivizmni tanqid qila boshladi. Bu oqimlar insoniy tajribaning chuqur ma'nosini tushunishga intilgan, sotsiologiyani faqat ilmiy o'lchovlar bilan cheklashga qarshi chiqqan.[5]⁵

¹ Sotsiologiya tarixi Toshkent "Innovatsiya-ziyo" 2020

² Lazarsfeld, P. F. The Language of Social Research.

³ Merton, R. K. Social Theory and Social Structure.

⁴ Parsons, T. The Social System.

⁵ Wallace, R. A., & Wolf, A. Contemporary Sociological Theory.

Xulosa AQSh sotsiologiyasida neopozitivizm sotsiologik metodologiyaning muhim bosqichidir. U sotsiologiyani ilmiy asosda o'rganishga yo'naltirgan, biroq keyinchalik uning chegaralari aniqlanib, muqobil yondashuvlar shakllangan. Shunday bo'lsa-da, neopozitivizm bugungi kunda ham empirik tadqiqotlar va metodologik yondashuvlar asosida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. Sotsiologiya tarixi Toshkent "Innovatsiya-ziyo" 2020
2. Lazarsfeld, P. F. The Language of Social Research.
3. Merton, R. K. Social Theory and Social Structure.
4. Parsons, T. The Social System.
5. Wallace, R. A., & Wolf, A. Contemporary Sociological Theory.